



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI TOSHKENT
SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI

TOSHKENT SHAHRIDA
CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI


Dastlabki ma'lumot
2024 - yil yanvar- may



Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Тел. 71-203-88-20(21)

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruvin qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumi ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati, % da



2024- yil 1-yanvar- iyun holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 13 805 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 284 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 13 521 tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatgichlariga kiritilgan

Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'limgan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.



Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2024- yilning yanvar-may oylarida Toshkent shahrining chakana savdo tovar aylanmasi 33 761,3 mlrd so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-may oylariga nisbatan 109,6 % ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 14 947,7 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 119,0 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 18 813,6 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 103,1 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 951,6 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 122,5 %) tashkil etdi.

	Jami, mlrd so'm	2023- yil yanvar- may oyiga nisbatan, foizda
Toshkent shahri	33 761,3	109,6
<i>tumanlar:</i>		
Uchtepa	3 018,8	109,7
Bektemir	1 216,2	109,5
Yunusobod	3 627,6	109,4
Mirzo Ulug'bek	2 538,4	110,5
Mirobod	2 464,6	107,0
Shayxontohur	3 765,5	109,4
Olmazor	2 651,6	110,0
Sirg'ali	1 931,9	110,8
Yakkasaroy	3 392,9	112,1
Yashnobod	2 876,4	108,9
Yangihayot	468,1	111,2
Chilonzor	5 809,3	108,5

2024- yilning yanvar-may oylarida 2023- yilning yanvar-may oylariga nisbatan Toshkent shahrining Yakkasaroy (112,1 %), Yangihayot (111,2 %) va Sirg'ali (110,8 %) tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

YILLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI


Chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'ati dinamikasi (yanvar-may)

95,4 % 122,5 % 108,0... 112,7 % 109,6 %



So'nggi 5 yillikda (2020–2024-yillar) chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2021- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2022- yilning mos davriga nisbatan 122,5 % ni tashkil qildi.

2024- yil uchun chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'ati, oylar kesimida (foizda)



2024- yilning yanvar- may oylarida o'sish sur'ati **109,6 %** ni tashkil qildi.

HUDUDLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI VA ULUSHI

4




Toshkent shahrida chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Chilonzor tumani 17,2 % bilan 5 809,3 mlrd so'mni tashkil etdi.

Toshkent shahrida chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni esa, Yangihayot tumani 1,4 % bilan 468,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.

2023 - yilning mos davriga nisbatan, chakana savdo tovarlar aylanmasida barcha hududlarda o'sish kuzatildi.

Hajmi, mlrd so'm





Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega tumanlar (foizda)

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo Tovar aylanmasi hajmi 2024-yilning yanvar-may oylarida statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 18 813,6 mlrd so'mni tashkil etib, 2023-yilning yanvar-may oylariga nisbatan 3,1 % ga oshdi. Toshkent shahri miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 55,7 % ni tashkil etdi.




104,2	Yashnobod
107,0	Uchtepa
115,9	Yakkasaroy
117,4	Yunusobod
117,5	Yunusobod
124,2	Chilonzor

Yirik korxonalarning eng yuqori o'sish sur'atiga ega tumanlar (foizda)

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi, 2023-yilning yanvar-may oylariga nisbatan 19,0 % ga o'sdi va 14 947,7 mlrd so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 44,3 % ulushiga to'g'ri keldi.

116,4	Olmazor
121,0	Yashnobod
121,8	Uchtepa
124,8	Yakkasaroy
132,8	Yunusobod
133,9	Shayxontohur
142,7	Chilonzor

CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)



Yirik korxonalar



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Chilonzor (10,5 %), Uchtepa (7,2 %) va Yunusobod (6,1 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning ulushi 44,3 % ni tashkil etib, eng katta ulush Chilonzor (6,7 %), Shayxontohur (5,6 %), Yakkasaroy (4,9 %), Mirobod (4,9%) tumanlarida kuzatildi.

44,3 %



55,7 %



Yirik korxonalar



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik



Hududlar kesimida ma'lumot, ming so'mda

Toshkent shahri

11 070,7

Yangihayot

2 656,4

Uchtepa

10 069,3

Chilonzor

21 094,1

Bektemir

19 937,3

Yunusobod

9 617,3

Mirzo Ulug'bek

7 652,8

Mirobod

16 161,6

Shayxontohur

10 291,1

Olmazor

6 542,3

Sirg'ali

11 431,2

Yakkasaroy


25 301,1

Yashnobod

9 540,3

2024- yilning yanvar- may oylari holatiga o'ttacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 11 070,7 ming so'mni (2023- yilning yanvar- may oylariga nisbatan 106,6 %) tashkil etdi.


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Yakkasaroy (25 301,1 ming so'm), Chilonzor (21 094,1 ming so'm) va Bektemir (19 937,3 ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.



Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati (2024- yil yanvar- may), foizda



Dehqon bozorlari



Chorva bozorlari

Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdag'i qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rnlari, turg'un savdo shoxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

	Jami, mlrd so'm	2023 - yil yanvar- may oylariga nisbatan, foizda
Toshkent shahri	880,9	123,7
<i>tumanlar:</i>		
Uchtepa	51,3	58,6
Bektemir	204,9	127,5
Yunusobod	152,0	118,9
Mirzo Ulug'bek	118,2	4,4 m.
Mirobod	12,8	42,4
Shayxontohur	147,3	115,8
Olmazor	36,7	2,6 m.
Sirg'ali	28,8	116,9
Yakkasaroy	19,9	156,9
Yashnobod	89,1	5,3 m.
Yangihayot	-	-
Chilonzor	20,1	5,2 m.

* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmag'an holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'atlari (2024- yil yanvar- may)




Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd so'm (2024- yil yanvar-may)

Toshkent sh.	951,6
Uchtepa	51,2
Bektemir	204,8
Yunusobod	152,1
Mirzo Ulug'bek	118,2
Mirobod	12,8
Shayxontohur	147,3
Olmazor	36,9
Sirg'ali	28,8
Yakkasaroy	19,8
Yashnobod	89,0
Yangihayot	-
Chilonzor	90,6

Toshkent shahari bo'yicha 2024- yilning yanvar-may oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi 951,6 mlrd so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-may oylariga nisbatan 122,5 % ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi 880,9 mlrd so'mni (123,7%), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi 70,6 mlrd so'mni (109,2%) tashkil etdi .

2024-yilning yanvar-may oylarida Toshkent shahrining barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 880,9 mlrd so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (460,2 mlrd so'm) to'g'ri keldi.

Uyushmagan savdo aylanmasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga hajmi va ulushi



2024- yilning yanvar-may oylarida, Toshkent shahrining Bektemir va Olmazor tuman hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 70 633,3 mln. so'mni (109,2 %) tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi 60 515,2 mln. so'mni, qo'y va echkilar – 7 931,9 mln. so'mni, otlar – 2 000,8 mln. so'mni, parrandalar – 108,5 mln. so'mni, quyonlar – 70,0 mln. so'mni tashkil qildi.

Uyushmagan savdo aylanmasida chorva mollari (parrandalar) savdosi hajmi va ulushi

2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar 32 430,2 mln so'm  3,4 %	1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar 12 164,4 mln so'm  1,3 %	1 yoshgacaha bo'lgan yosh mollar 15 920,5 mln so'm  1,5 %
Qo'yilar 6 974,3 mln so'm  0,7 %	Otlar 2 000,8 mln so'm  0,2 %	Echkilar 957,6 mln so'm  0,1%
Kurka, o'rdak, g'oz 42,9 mln so'm  0,005 %	Tovuqlar 20,9 mln so'm  0,002 %	Quyonlar 77,0 mln so'm  0,008 %
Qushlar 44,6 mln so'm  0,005 %		

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2024- yil 1- iyun holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni 4 915 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 76 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 4 839 tani tashkil qildi.

	Jami mlrd. so'm	2023- yil yanvar-aprel oylariga nisbatan, foizda
Toshkent shahri	3 639,0	117,2
<i>tumanlar:</i>		
Uchtepa	93,8	116,6
Bektemir	64,7	118,2
Yunusobod	470,5	106,1
Mirzo Ulug'bek	347,2	107,1
Mirobod	261,0	106,9
Shayxontohur	1 038,6	134,3
Olmazor	159,3	112,2
Sirg'ali	274,9	107,4
Yakkasaroy	300,5	111,1
Yashnobod	247,3	115,0
Yangihayot	53,1	107,2
Chilonzor	328,1	130,6

2024- yilning yanvar-may oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 3 639,0 mlrd so'mga yetdi. 2023- yilning mos davriga nisbatan 117,2 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 55,3 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.




Avtotransport vositalari va ularning ehtiyyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajmi, mlrd so'm	Ulushi, foizda
Toshkent shahri	13 963,5	100,0
<i>tumanlar:</i>		
Uchtepa	402,5	2,9
Bektemir	854,2	6,1
Yunusobod	1 734,9	12,4
Mirzo Ulug'bek	625,6	4,5
Mirobod	704,2	5,0
Shayxontohur	1 250,5	9,0
Olmazor	117,5	0,8
Sirg'ali	4 846,2	34,7
Yakkasaroy	1 033,8	7,4
Yashnobod	854,7	6,1
Yangihayot	720,3	5,2
Chilonzor	819,1	5,9


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirganda eng yuqori hajm Sirg'ali (4 846,2 mlrd so'm), Yunusobod (1 734,9 mlrd so'm) va Shayxontohur (1 250,5 mlrd so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi. (*mlrd so'm*)



2024- yilning yanvar-may oylarida avtotransport vositalari va ularning ehtiyyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatishdan tashqari*) 13 963,5 mlrd so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 31,7 % ga oshdi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi 7 442,4 mlrd so'm (o'sish sur'ati – 155,2 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari savdo hajmi – 6 521,2 mlrd so'mni (o'sish sur'ati – 97,7 %) tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi os'ish sur'ati, foizda



Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'mda

Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o'z foydalanishi (qayta ishslash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o'zgartirmagan holda jo'natilgan tovarlarning ushbu tovarlar uchun haq to'lanadigan yoki to'lanmaganligidan qat'iy nazar qiymati.



Toshkent shahari bo'yicha 2024- yilning yanvar-may oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 66 548,2 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 10,6 % ga o'sdi.

Savdo aylanmasi va ulushi

36,2 %
24 087,8 mlrd. so'm

Yirik korxonalar

63,8 %
42 460,5 mlrd. so'm

Mikrofirma va kichik korxonalar

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda 42 460,5 mlrd so'mni tashkil qilib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 107,8 % ga to'g'ri keldi. Toshkent shaharida ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi 63,8 % ni tashkil qildi.

ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK VA KICHIK BIZNES KORXONALARI SAVDO HAJMI VA O'SISH SUR'ATI

2024- yil 1- yanvar-iyun holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 17 306 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 224 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 17 082 tani tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega eng yirik korxonalar Yangihayot (2,5 m.), Bektemir (166,8 %.) va Mirobod (115,1 %) tumanlarida kuzatildi.

	Jami mlrd. so'm	2023- yil yanvar- may oylariga nisbatan, foizda
Toshkent shahri tumanlar:		
Uchtepa	4 008,4	108,2
Bektemir	1 161,9	166,8
Yunusobod	6 016,8	111,7
Mirzo Ulug'bek	5 504,6	106,1
Mirobod	7 574,9	115,1
Shayxontohur	3 636,7	105,3
Olmazor	9 615,3	107,0
Sirg'ali	3 225,8	107,4
Yakkasaroy	8 390,5	109,3
Yashnobod	8 375,6	106,7
Yangihayot	1 310,5	2,5 m.
Chilonzor	7 727,3	108,4